



TEXNIKA TARAQQIYOTI SHAROITIDA TIL LUG'ATINI BOYITISH

Sh.T.Ahmadjonova

FarDU ingliz tili kafedrası o'qituvchisi

Muyassar Qodirova Akmalidinovna

FarDU chet tillari fakulteti 2-kurs magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ma'lumotlarni qayta ishlash tartibini avtomatlashtirish, yangi faol leksikografik sistemalarni yaratish, buning natijasi sifatida an'anaviy lug'atlardan avtomatlashgan (elektron) lug'atlar yaratish dolzarbligi hamda bu sharoitda til lug'atini boyitish xususida fikr yuritilgan. Xususan, internet tizimida mavjud elektron lug'atlarning an'anaviy lug'atlardan ustunligi, qulayligi haqida ma'lumot berilgan.*

Kalit so'zlar: *kiberleksikografiya, qog'ozli lug'at, elektron lug'at, multileks, mediaob'ekt, video va animatsion fragmentlar*


KIRISH

Yangi davrda axborot texnologiyalarining rivojlanishi jamiyat a'zolaridan texnika va texnologiyani puxta o'zlashtirishni, elektron lug'atlar yaratish va ularni samarali qo'llash, tadqiqotlar olib borish, axborotni qayta ishlash, ulardan to'liq foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lishni talab etadi [3]. Leksikografiya sohasiga kompyuter texnologiyasining kirib kelishi faqat elektron lug'atlarga leksemaning butun mohiyatini tezkorlik bilan o'quvchiga yetkazish imkoniyatiga egaligini ko'rsatdi. Jamiyatdagi barcha sohalarga axborot texnologiyalarining tatbiqi leksikografiyada zamonaviy – kiberleksikografiya yo'nalishining paydo bo'lishiga olibkeldi. Ma'lumotlarni qayta ishlash tartibini avtomatlashtirish, yangi faol leksikografik sistemalarni yaratish, buning natijasi sifatida an'anaviy lug'atlardan avtomatlashgan (elektron) lug'atlar yaratishga o'tish jarayonini tezlashtirdi [4].

ADABIYOTLAR SHARHI

Hozirgi vaqtda kompyuterlar nafaqat dasturchilar va muhandislar, balki xorijiy ma'lumotlarning tezkor tarjimasiga muhtoj bo'lgan tilshunoslar, tarjimonlar va boshqa soha mutaxassislari orasida tobora muhim o'rin egallab bormoqda. Jumladan, kompyuter dasturlari orqali yaratilgan elektron lug'atlar vaqtini tejash va o'zga tildagi ma'lumotlarni tushunish jarayonini optimallashtirish uchun juda qulay vositaga aylanganligini inkor etib bo'lmaydi. Bundan tashqari, endilikda o'zga tillardagi matnlarning kengroq yoki qisqartma tarjimasini amalga oshiradigan va turli sohalardagi mutaxassislarning ishiga yordamberadigan tarjima dasturlari ham mavjud.

Jamiyatning muayyan tilga oid keng qamrovli ma'lumotlaridan turli ehtiyojlarga ko'ra foydalanish lug'atlar sistematik to'plamlari (repertuar, kolleksiya)ni ham murakkablashtiradi, ham kengaytiradi. Bitta lug'atda til to'g'risida butun jamiyatni, shuningdek, uning alohida qatlamlari va xususiyatlarini to'liq yoritib foydalanuvchi ehtiyojini qondiradigan ma'lumotlarni taqdim etishning deyarli imkoni yo'q. Shuning





uchun har qanday milliy leksikografiyada har xil turdagi o'nlab, hatto yuzlab lug'atlarni ko'rishimiz mumkin [7].


Mustaqillik yillarida o'zbek leksikografiyasi qator yutuqlarni qo'lga kiritdi. Qisqa davr ichida katta ishlar amalga oshirildi, bir qator nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilindi [6]. Buning pirovard natijasida besh jildli «O'zbek tilining izohli lug'ati» (2012-2016) yaratildi. Lug'atning yangi turlari nashr etildi, ularda xalqimizning boy ma'naviy xazinasini o'z o'rnini topdi, milliy qadriyatlarimizni ifodalovchi leksemalar o'zining haqiqiy bahosini oldi [4], shuningdek, leksikografiyaga kompyuter lingvistikasi kirib keldi [5]. Ammo o'zbek lug'atchiligini rivojlantirish va takomillashtirish yo'lida qilinishi kerak bo'lgan ishlar hali bisyor. O'zbek leksikografiyasi hanuzgacha internet tizimida ishlaydigan elektron lug'atlar bazasiga ega emas. Demak, o'zbek lug'atchiligiga dunyo tilshunosligining eng yangi yutuqlarini, zudlik bilan tatbiq etish va amaliyotda bundan samarali foydalanish sira kechiktirib bo'lmaydigan vazifalardan biridir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Lug'at nima? "O'zbek tili izohli lug'ati"da «lug'at» so'ziga quyidagicha ta'rif berilgan: «arabcha» so'zdan olingan bo'lib, "til, sheva, so'z, ibora" ma'nolarni anglatib, "biror tildagi so'zlarni ma'lum tartibda (odatda, alifbo tartibida) jamlab, izohlab yoki boshqa tilga tarjimaqilib berilgan kitob va tildagi barcha so'zlar majmui; so'z boyligi"[3] kabi ma'nolarda qo'llaniladi. Google tizimida internet manbalarda esa: «Lug'at» – ahamiyati, ishlatilishi, kelib chiqishi, tarjimasi bo'yicha ma'lum bir tartibda joylashtirilgan so'zlar to'plamini: morfemalar, so'z birikmalari, idiomalar va boshqalar to'plamini – lingvistik to'plamni; fan, madaniyatning turli sohalarida faoliyat ko'rsatgan mashhur kishilar to'g'risidagi ma'lumotlarni – yangi ensiklopedik to'plamni o'zida saqlovchi bir kitob" degan ta'rif keltiriladi [2].

Elektron lug'at nima? Internetning wikipedia tizimida: «elektron lug'at» so'zi "kompyuterda yoki boshqa elektron texnik vositalardagi lug'atdir", deb ta'riflangan. Axborot-qidiruv tizimiga solingan lug'atlar to'plami elektron lug'atlar hisoblanadi. Turli maqsadlar uchun yig'ilgan, o'zgaruvchan hajmga ega elektron lug'atlar to'plami kiberleksikografiyaga misol bo'la oladi. Bunday elektron lug'atlar to'plamida so'zlar bitta tilga xos yoki shu tilga xos boshqa variantlarda berilgan bo'lishi, ular qaysidir jihatdan biri-biriga o'xshash bo'lishi tabiiy. Lug'at ma'lumotlari kerakli so'zlarning morfologiyasi va so'z, iboralarni ishlatilishi xamda ularni chet tilga tarjimasi jihatidan tez topishga yordam beradi. Texnik jihatdan elektron lug'at bu zarur so'zlarni (so'z birikmalari, iboralarni) tez qidirib topishga imkon beradigan maxsus kodlashtirilgan maqolalardan iborat kompyuter ma'lumotlar bazasidir. Shu bilan birga dastlabki elektron lug'atlar bir dastur qobig'iga birlashtirilgan oddiy "dic" dasturdan, bir necharuknli lug'atlar ya'ni "lingvo" kabi ko'rinishlarda bo'ladi [6].

Lug'atlar qog'ozli va elektron bo'ladi. Bundan tashqari lug'atlar turli vazifalarga ega va ular shu xususiyati bilan farqlanadi. Masalan: elektron lug'atlar faqat bir vazifani bajaruvchi (masalan: «Dalning onlayn izohli lug'ati») va ko'p vazifalarni bajaruvchilar (masalan: «abby lingvo») ko'rinishlarga bo'linadi. Lug'atlarning online- tarjimonlar va





google lug'atlar kabi elektron turlari mavjud. Bunda ixtiyoriy so'zning qidiruvidan so'ng so'zining tarjima (izoh) varianti va uni saqlash javobi taklif etiladi. Ensiklopediya wikipedia shu sxemada ishlaydi.

1990 yillardan boshlab, CD-Rom va DVDrom kabi elektron ma'lumot saqlovchi moslamalardan foydalanish elektron lug'atlarning shakllanishiga turtki bo'ldi. Bunday moslamalar qog'ozdagi ma'lumotlarni elektron vositalarga ko'chirishidan boshlangan edi. Keyinchalik elektron ma'lumot tashuvchi moslamalardagi katta hajmdagi leksikografik ma'lumotlar internetda joylashtirildi. Mana shu tarzda yagona elektron leksikografik ma'lumotlar bazasi yaratish asos solindi. Elektron lug'atlar yordamida quyidagilar amalga oshiriladi: zamonaviy lug'atlarga tayanib so'zlarning bir necha variantlarini aniqlash; matn bo'yicha so'zlarni qidirish; bir lug'at nashrining xronologik tartibi bo'yicha so'zlarni aniqlash; lug'atlar ichida so'zlarni qidirib topish.

Bugungi kunda leksikologiyaning yangi yo'nalishini ifodalovchi kiberleksikografiya tadqiqotchilar zimmasiga katta vazifani yuklaydi. O'zbek tilshunosligida kiberleksikografiya yangi soha bo'lgani bois, uning rivojlantirishida, undagi imkoniyatlaridan amaliy foydalanishida hamda bu sohaning samaradorligini oshirishda elektron lug'atlar yaratilishini talab qiladi [4].

Elektron (avtomatik) lug'at – bu kompyuter dasturiy ta'minoti sifatida amal qiluvchi maxsus mashina formatidagi lug'atdir. Bugungi kunda turli lug'atlarning elektron versiyalari keng tarqalgan. An'anaviy qog'oz variantlarga qiyoslaganda ular matn bilan birgalikda grafik tasvirlar, mediaob'ektlar, video va animatsion fragmentlar, tovush, musiqa va boshqa ko'plab ma'lumotlarni o'zida mujassamlashtirgan bo'ladi.

Barcha elektron lug'atlarni ikki turga bo'lish mumkin:

So'nggi iste'molchining avtomatik lug'ati;

Matnni dasturiy ishlash bo'yicha avtomatik lug'at (axborot – qidiruv tezauruslar, chastotali lug'atlar, rubrikatorlar, klassifikatorlar, morfologik analiz so'zlari; so'z morfologiyasi bo'yicha batafsil ma'lumotlarni mujassamlashtirgan so'zlar, mashina tarjimasi uchun so'zlar).


Hozirda Rossiyada elektron Lug'atlarning juda ko'p nashrlari keng tarqalmoqda:

Lingvo (ABBY Software House), Multileks (MediaLingva), Polyglossum (ETS - "Elektron va an'anaviy lug'atlar"), Kontekst (Informatik), PROMT (PROMT) va boshqalar. Ularning aksariyati universal bo'lsada, lekin har biri ma'lum bir yo'nalishga mo'ljallangandir [1].

Ikkita eng mashxur elektron lug'atlar - Lingvo kompanii Abbyy i Multilekslar Media lingva firmasi tomonidan ishlab chiqilgan. Uni ishlab chiqqanlar leksikografiya elektron lug'atversiyalariga nisbatan turlicha qarashlarga ega.

XULOSA VA MUNOZARA

Xulosa shuki, o'zbek kiberleksikografiyasini yo'lga qo'yish bugun uchun dolzarb vazifa. Zamonaviy tilshunoslikning yutuqlari asosida bugungi kunda o'zbek tili lug'atlarini kompyuter texnologiyalari asosida qurish va qayta ishlash, uning qo'llanishini ma'lum bir sharoit, turli sharoit uchun modellashtirish, ona tilimiz kompyuter modellarini





lingvistika yoki boshqa sohalarda qo'llash, texnika tarjimasini kabilar bo'yicha erishilayotgan sezilarli yutuqlar kiberleksikografiyasini yo'lga qo'yishga olib keladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karpova O. M., Menagarishvili O. V. Elektron lug'atlar va kibernetik leksikografiya: usul. kurs uchun tavsiyalar. -Ivanovo: Ivan. davlat un-t, 2012. -45 b.
2. Kibernetik leksikografiya Zaxarov V. 1 A -10 I. N. Ulyanov nomidagi FIYa CGU. elektr. manba. 2017 yil
3. Krysin L. "O'qituvchi gazetasi", 5-son, 9 fevral 2010 yil.
4. Madvaliev A. Termin - terminologiya lug'at - isohli lug'at // O'zbek tili va adabiyoti. - 2018 yil - 6-son. - B. 54-67.
5. Xorijiy tilshunoslikdagi yangilik. 14-son. Leksikografiya muammolari va usullari. Zevakhina T. S., Gorodetskiy B. Yu. M. tahririyati ostida: Progress, 2013. - 399 p.
6. Muhamedova S. Kompyuter lingvistikasi. – Toshkent: TDPU, 2007.
7. Toirova G. O'zbek tili milliy korpusini yaratishning nazariy va amaliy masalalari. Xalqaro monografiya. Germaniya: "GlebeEdit" nomli xalqaro nashriyot. 2020
8. Mirzayeva, D. (2019). PROVERB AS A KIND OF PAREMIOLOGICAL FUND AND AS AN OBJECT OF LINGUISTIC AND METHODOLOGICAL RESEARCH. *Мировая наука*, (11), 33-36.
9. Mirzayeva, D. (2019). THE CONCEPT OF" FRIENDSHIP" IN UZBEK AND ENGLISH LINGUISTIC CULTURE. *Мировая наука*, (11), 29-32.

